O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 29 - fevral 66-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-sonli farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 16-10-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Tumanda chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini isloh qilish doirasida hududlarni sanitar tozalash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli farmoni asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 yanvardagi** 16-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-sonli farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi** 16-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-sonli** Farmon bilan quydagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilganligi:

Jumladan:

birinchidan, mavjud poligonlarning holati ekologiya va sanitariya talablariga javob bermaydi, ular faoliyatida qayta ishlash, utilizatsiya qilish va kuydirib yuborish tizimlari yaratilmagan, shuningdek, boshqaruv tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ayrim poligonlar tartibsiz shakllangan;

ikkinchidan, chiqindi xizmatlari uchun to‘lov so‘nggi 4 yil davomida qayta ko‘rib chiqilmaganligi tadbirkorlik subyektlari hisoblangan sanitar tozalash korxonalarining iqtisodiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, oqibatda chiqindilarni to‘plash, olib chiqib ketish, saralash va qayta ishlash ishlari to‘laqonli va samarali ravishda amalga oshirilmagan;

uchinchidan, sanitar tozalash xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirishda inson omilining yuqoriligi, markazlashgan elektron to‘lov tizimining to‘liq joriyn qilinmaganligi hamda idoralararo tizimlar bilan integratsiya qilinmaganligi natijasidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha debitor qarzdorlik ko‘paygan;

to‘rtinchidan, yuridik shaxslarga chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnomalar tuzilmagan hamda bu masalada yuridik shaxslarning mas’uliyati belgilanmaganligini inobatga olinsin.

2.1. Shuningdek, farmon bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik), Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha:

belgilangan tartibda avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o‘rnatgan tadbirkorlik subyektlariga ekologik huquqbuzarliklarni qayd etish va Davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar berish huquqini berish. Bunda, tadbirkorlik subyektlari javobgarlikka tortish choralari ko‘rilishi natijasida jarima sifatida undirilgan mablag‘larning 20 foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan rag‘batlantirilishi;

aholiga o‘z tashabbusi bilan chiqindixonalarga aylangan yoki tizimli ravishda chiqindilar noqonuniy ravishda tashlab ketilishi kuzatiladigan hududlarda o‘z mablag‘lari hisobidan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o‘rnatish yuzasidan Vazirlikka buyurtma berish imkoniyatini yaratish. Bunda, javobgarlikka tortish choralari ko‘rilishi natijasida jarima sifatida undirilgan mablag‘larning 20 foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan buyurtma bergan shaxslar rag‘batlantirilishi;

ekologik patrulga jalb qilingan Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi xodimlari tomonidan ekologik huquqbuzarliklar bo‘yicha javobgarlikka tortish choralari ko‘rilishi natijasida jarima sifatida undirilgan mablag‘larning 10 foizi
miqdoridagi pul mukofoti bilan ushbu xodimlarni rag‘batlantirish;

“Xavfsiz shahar” integratsiyalangan tizimi doirasida kameralar orqali ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash tizimini joriy qilish;

b) sanitar tozalash korxonalarining chiqindilarni yuklash, tashish, joylashtirish va saralash ishlari bilan shug‘ullanuvchi ishchilari hamda obodonlashtirish boshqarmalarining tozalash ishlari bilan shug‘ullanuvchi ishchilari xizmatlarini rag‘batlantirish bo‘yicha:

mazkur ishchilarga, ekofaollarga va jamoatchilik ekologiya nazoratchilariga Ekologiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har oy 100 tadan velosiped va boshqa mukofotlarni berish;

har yili eng uzoq (kamida 10 yil) va sadoqatli xizmat ko‘rsatgan xodimlar uchun “Tabiat uyg‘unligi himoyachisi” tanlovini o‘tkazish hamda ulardan 100 nafarining davlat oliy ta’lim muassasalariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga kirgan farzandlari yoki nevaralariga kontraktining to‘liq summasini Ekologiya jamg‘armasi hisobidan to‘lab berish. Bunda,

talabalarga kelgusida davlat organlari va tashkilotlarida kamida uch yil ishlab berish majburiyati yuklatiladi;

v) Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda har yili “Eng toza mahalla” tanlovini o‘tkazish va tanlov natijalari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan 14 ta mahallaga Ekologiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

mahallaning tegishli jamg‘armasiga chiqindi yig‘ish maydonchalarini qurish, mahalladagi ijtimoiy ob’ektlarga chiqindi konteynerlarini o‘rnatish va daraxtlarni ekish uchun jami 500 million so‘mdan o‘tkazib berish;

xizmatda foydalanish uchun 1 tadan elektromobil xarid qilish va topshirish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilganligi inobatga olinsin.

3. **Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi kotibiyati, Ekologiya, atrofmuhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining viloyat boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari** bilan birgalikda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to‘plash me’yorlarini tasdiqlaydi hamda ommaviy ofertadagi to‘lov summalari ushbu me’yorlarga asoslangan holda belgilab borishini tashkil etishi;

Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi viloyat hududiy filiali, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-apreldan boshlab barcha sanitar tozalash korxonalari tomonidan Yagona elektron tizimga ulangan holda fuqarolarga xizmat ko‘rsatish hamda ushbu talabni bajarmagan korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish va ular xizmat ko‘rsatadigan hududlarni davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa korxonalarga biriktirish choralarini ko‘rib borishi ma’lumot uchun qabul qilinsin..

4. **Quyidagilar:**

2024 – 2026-yillarda respublika qududida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish manzilli dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

2024 – 2025-yillarda qattiq maishiy chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish va tuproq qatlami bilan yopish manzilli dasturi **2-ilovaga** muvofiq;

2024-2025-yillarda qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyalarini tashkil etish bo‘yicha manzilli dastur **3-ilovaga** muvofiq;

2024 — 2028-yillarda hududlarda chiqindilarni qayta ishlash, muqobil energiya hamda organik o‘g‘it ishlab chiqarish istiqbolli loyihalari **4-ilovaga** muvofiq;

2024 — 2028-yillarda hududlarda zamonaviy yarim yer osti chiqindi konteynerlarini o‘rnatish bo‘yicha istiqbolli loyihalar **5-ilovaga** muvofiq;

2024 — 2026-yillarda qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyalarini tashkil etish bo‘yicha istiqbolli loyihalar **6-ilovaga** muvofiq ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Aholiga qulay sanitariya-gigiena sharoitlarini yaratish, turistik jozibadorlikni oshirish

va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida 2024-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlariga jamoat joylari, ijtimoiy obyektlar va aholi punktlarining belgilangan joylarida sanitariya-gigiena shoxobchalarini tashkil etish huquqi berilganligi inobatga olinsin.

Bunda:

tuman Qurilish va uy-joy kommunal bo‘limi tomonidan jamoat sanitariya-gigiena shoxobchalari qurilishi mumkin bo‘lgan joylarning dislokatsiyasini hamda mazkur hududdagi infratuzilma obyektlari va aholi harakati gavjumligi darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “E-auksion” tizimidagi alohida veb-sahifada e’lon qilib borish;

sanitariya-gigiena shoxobchalari o‘rnatiladigan joylarni tadbirkorlik subyektlariga biriktirish elektron auksion savdolari orqali amalga oshirish ishlarini tashkil etib borsin.

6. **Tuman tibbiyot birlashmasi (X.Asadov), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Ubaydullaeva), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (O.Xoldorov)**:

2024-yil 1-iyunga qadar ijtimoiy obyektlaridagi mavjud barcha sanitar-gigiena shoxobchalarini xatlovdan o‘tkazsin;

2024-yil 1-sentabrga qadar barcha hududlardagi sanitar-gigiena shoxobchalarini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha uch yillik dasturlarni ishlab chiqsin va tasdiqlanishini ta’minlasin.

Bunda, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tuman bo‘limi (B.Eshnazarov) tegishli tavsiyalani bergan holda mazkur tadbirlarni muvofiqlashtirib borsin.

7. **Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tuman bo‘limi** boshlig‘i belgilansin.

13. Mazkur qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish **tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov** zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**